NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Navoiy innovatsiyalarlar universiteti
rektor ____________ J.Mavlonov
2026-yil "03" 03

Ro'yxatga olindi ______
2026-yil "02" 03

**Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun**

# YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI

# DASTURI

**Navoiy – 2026**

## MUNDARIJA


1. Kirish ....................................................................................3
2. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar dasturining mazmuni. "Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)" yo'nalishi fanlarining mazmuni....................................................................................4
3. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi ....................................5
4. Baholash mezoni ....................................................................................6
5. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar bo'yicha savollar to'plami ....................................................................................8
6. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar ....................14


Ushbu dastur Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun yo'nalish fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish uchun tuzilgan bo'lib, universitet Kengashining "____"- fevral 2026-yil 7-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

"Filologiya va tillarni o'qitish" kafedrasida muhokama qilingan va "__" "_____" 2026-yil ____ -sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Asos: - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 16-noyabrda 1963-3-son bilan qayta ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida Nizom;

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 26-sentabrda 3069-son bilan ro'yxatga olingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018–sonli buyrug'i.


Tuzuvchi:

F.T.Rajabov — Navoiy innovatsiyalar universiteti "Filologiya va tillarni o'qitish" kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

Z.Quvonov — Navoiy davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

## 1.Kirish

Yakuniy davlat attestatsiyasining maqsadi talabalarning asosiy kasbiy ta'lim dasturini o'zlashtirish natijalarining davlat ta'lim standartining tegishli talablariga muvofiqligini aniqlashdir.

Mazkur dastur bakalavriat: 60230100 - "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" ta'lim yo'nalishi bitiruvchi talabalari uchun mo'ljallangan."Navoiyshunoslik", "O'zbek adabiyoti tarixi I,II,III", "Aruz va mumtoz poetikaga kirish", "O'zbek folklori" fanlarini jamlagan holda o'zbek adabiyotining davrlashtirish tamoyillari, tarixi va nazariyasini o'rgatish hamda amaliyotda ularni qo'llay olish xususiyatini aniqlashdan iborat.

## 2.Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar dasturining mazmuni.

Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili) yo'nalishi fanlarining mazmuni

60230100 - "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'zbek tili fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, filologiya muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tiliga oid masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

-umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o'rta ta'limda o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

-o'rta maxsus va professional ta'limda o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

-O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish; umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'limlarni majmuasini qamrab oladi.

## 3.Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi Navoiy innovatsiyalar universiteti Kengashining 202__ yil __ ______ №___-sonli qaroriga muvofiq yozma ravishda o'tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga mos sanalarda tashkil etilib, talabalarga aniq vaqti kamida 30 kun oldin e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi tayyorgarlik va maslahatlar o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida tashkil etilib, kafedra tomonidan biriktirilgan professor-o'qituvchilar tomonidan olib boriladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga 60230100 - "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini baholash ushbu dasturning "Baholash mezonlari" bo'limidagi talablar asosida amalga oshiriladi

Yakuniy davlat attestatsiya sinovi bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keying 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun universitet rektorining buyrug'i bilan appelyatsiya komissiyasi tuziladi.

Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar baho e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egalar.

## 4.Baholash mezoni

Talabalar bilimini baholashda fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining 60230100 - "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" ta'lim yo'nalishi malaka talablaridagi bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy malaka talablarga ham javob bera olish darajasi aniqlanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini yozma shaklda o'tkazilib, har bir bitiruvchi talabalaga alohida imtihon biletlari tarqatiladi. Imtihon biletlari ushbu dasturning "Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar bo'yicha savollar to'plami" bo'limidagi savollardan 5 ta savoldan iborat etib tuziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini baholashda har bir savol alohida 100 ballik baholash tizimda baholanib, umumiy baho har bir savoldan olingan baholarni o'rta arifmetigi tarzida butun songa yaxlitlab qo'yiladi.

Talabani yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidagi bilim darajasini baholashda quyidagi jadvalda keltirilgan mezonlarga amal qilinadi:

| Baho | Bilim darajasi |
|---|---|
| 1 | 2 |
| 5 (a'lo)<br>90-100 ball | Agar talaba imtihon biletida berilgan savollarga mantiqiy, izchil javob yozsa va qo'shimcha tushuntirishlar talab etilmasa, "a'lo" bahosi qo'yiladi. Mantiqiy xulosalar chiqaradi. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlariga amal qiladi. Talabaning javobi batafsil, ishonchli, aniq ifodalangan. Talaba ѕavol mohiyatini to'liq, chuqur va ilmiy asosda ochib beradiб nazariy tushunchalarga aniq ta'riflar beradi. Dialektologik va grammatik hodisalarni tahlil qila oladi. Adabiy til va sheva birliklarini qiyoslaydi, ilmiy terminlardan to'g'ri va o'rinli foydalanadi. Javob ravon, mantiqli, grammatik xatolarsiz misollar bilan tasdiqlaydi. |
| 4 (yaxshi)<br>70-89 ball | Talaba savollarga tizimli, izchil va ishonchli javob yozsa, "yaxshi" bahosi qo'yiladi. Materialni tahlil qilish qobiliyatini namoyish etadi, lekin uning barcha xulosalari asosli va dalillarga asoslangan emas. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlariga amal qiladi. Savolni to'g'ri va yetarli darajada yoritadi. Asosiy tushunchalarni biladi, lekin ayrim joylarda chuqurlik yetishmaydi. Misollar keltiradi, ammo tahlil qisman. Terminologik mayda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Nutqi tushunarli, ammo javobda individual xatolar va noaniqliklarga yo'l qo'yadi. |
| 3 (qoniqarli)<br>60-69 ball | "Qoniqarli" baho, agar talaba javob yozganda, asosan, kasb bo'yicha kelgusi ish uchun zarur bo'lgan hajmda dasturiy materialni bilsa, qo'yiladi. Shu bilan birga, u savollarga javob yozishda xato qiladi. U tomonidan berilgan ibora yetarlicha aniq emas, javoblarda noaniqliklarga yo'l qo'yiladi. Savolga qisman javob beradi. Nazariy bilimlar yuzaki, misollar kam yoki noto'g'ri, tahlil va xulosa yetarli emas. Nutqda imlo va uslubiy xatolar mavjud. |
| 2<br>(qoniqarsiz)<br>59-50 ball | Agar javob berishda asosiy dastur materialini bilishda sezilarli kamchiliklar aniqlansa, talabaga "qoniqarsiz" baho qo'yiladi; imtihon bileti savollariga javob yozishda fundamental xatolarga yo'l qo'yadi. Materiallar nomuvofiq berilgan, bilimlar tizimining mavjudligini ko'rsatmaydi. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlarini sezilarli darajada buzgan. |

## 5. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar bo'yicha savollar to'plami

### "Navoiyshunoslik" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun savolnoma

1. Navoiyning rindona, peyzaj, odob-axloq, hajviy ruhdagi g'azallari
2. Navoiy she'riyatida badiiy san'atlar. Lafziy san'atlar
3. Navoiy she'riyatida badiiy san'atlar. Ma'naviy san'atlar
4. Navoiyning "Arba'in" va "Nazm ul- javohir" asarlari
5. "Hayrat ul-abror" dostonining boblar bo'yicha tavsifi
6. "Hayrat ul-abror" va "Farhod va Shirin" xotimalarining sharhi
7. "Layli va Majnun" dostonida ayollar obrazi. Dostondagi so'nggi boblar sharhi.
8. "Sab'ai sayyor" dostonidagi so'z ta'rifi. Dostondagi 8-bob sharhi
9. "Saddi Iskandariy" dostonida Husayn Boyqaro, uning farzandlari hamda hakimlar ta'rifi
10. "Saddi Iskandariy" dostonidagi hikoyatlar
11. "Xamsa" dostonlarida Husayn Boyqaro va Badiuzzamon Mirzo ta'rifi
12. "Xamsa" dostonlarida na't boblar sharhi
13. "Majolis un-nafois" tazkirasidagi 3-,4-majlislar sharhi
14. "Majolis un-nafois" tazkirasidagi 7-,8-majlislar sharhi
15. "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi masalalar
16. Navoiy ijodida ramal bahrining o'rni
17. Navoiy nasrining poetik xususiyatlari
18. "Mezon ul-avzon" asarida aruzga oid ma'lumotlar

19. "Tarixi anbiyo va hukamo" asari sharhi
20. Navoiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari
21. "Xazoyin ul-maoniy" devonlari tarkibi
22. Navoiy ruboiylarining mavzulari va badiiyati
23. Navoiy fard, tuyuq va qit'alarining mavzulari va badiiyati
24. Navoiyning muxammas, musaddas, mustazod va boshqa janrdagi she'rlarining mavzu va badiiyati
25. forsiy va turkiy qasidalari
26. "Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlar, ilm va olimlarga munosabat. Dostonda komil inson masalasi.
27. "Farhod va Shirin" dostonidagi qahramonlarning qiyosiy tavsifi.
28. "Layli va Majnun" dostonida ruhiyat tasviri. Dostonda "Me'roj tuni" ta'rifi.
29. "Sab'ai sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili, dostondagi so'nggi boblar sharhi
30. "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar voqeasi va keltirilgan hikoyatlar mutanosibligi. Dostondagi xulosaviy boblar sharhi.
31. "Lison ut-tayr" dostonidagi vodiylar tavsifi, hikoyatlar tahlili.
32. "Lison ut-tayr" dostonidagi xulosaviy boblar sharhi
33. Navoiyning tilshunoslikka oid asarlari
34. "Majolis un-nafois" turkiy tazkirachilikning dastlabki namunasi sifatida. 1-, 2-majlislar sharhi
35. "Nasoyim ul-muhabbat"dagi hikoyatlar sharhi
36. "Xamsat ul-mutahayyirin" asari sharhi
37. "Holoti Pahlavon Muhammad" va "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarlari sharhi
38. "Munshaot" va "Munojot" asarining sharhi
39. "Tarixi muluki Ajam" asari sharhi
40.. "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida tasavvuf masalalari
41. "Munojot" va "Munshaot" asarlari
42. "Mahbub ul-qulub" asaridagi masalalar
43. Navoiyga nisbat berilgan asarlar.
44. Navoiy poetikasi haqida
45. "Munojot" va "Devoni Foniy" poetikasi
46. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida tilshunoslik masalalari
47. "Majolis un-nafois" asaridagi majlislar sharhi
48. "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida payg'ambarlar tavsifi
49. Navoiy g'azal va ruboiylari vaznlari
50. "Vaqfiya" asarida Navoiy faoliyati
51. Navoiy ijodini o'rganish masalalari
52. Navoiy asarlarining tarjimalari
53. Navoiy ijodida davlat boshqaruvi masalalari
54. Navoiy ijodida tasavvuf
55. "Xazoyin ul-maoniy" devonida janrlar tizimi
56. Navoiy yodnomalari – memuar janrining yuksak namunasi sifatida
57. Ma'rifiy-ta'limiy, diniy va tasavvufiy asarlari.
58. "Mahbub ul-qulub" asari.
59. Navoiy poetikasi. Navoiy ijodida qofiya tizimi.
60. Badiiy san'atlar va ularning Navoiy she'riyatidagi o'rni.

**"O'zbek adabiyoti tarixi I.II.III" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun savolnoma**

1. O'zbek adabiyoti tarixining asosiy bosqichlari qanday?
2. Eng qadimgi turkiy yozma yodgorliklar haqida nimalarni bilasiz?
3. "O'rxun-Enasoy bitiklari"ning adabiy ahamiyati nimada?
4. Qadimgi turkiy adabiyotning asosiy xususiyatlari qanday?
5. "Qutadg'u bilig" asarining mazmuni va ahamiyati nima?
6. Yusuf Xos Hojib ijodi haqida gapiring.
7. "Hibat ul-haqoyiq" asari nimani targ'ib qiladi?
8. Ahmad Yugnaki ijodining o'ziga xosligi nimada?
9. "Devonu lug'otit turk" asarining adabiy va ilmiy ahamiyati nimada?
10. Mahmud Qoshg'ariyning adabiyot tarixidagi o'rni qanday?
11. Tasavvuf adabiyotining asosiy xususiyatlari qanday?
12. Ahmad Yassaviy ijodi haqida ma'lumot bering.
13. "Devoni hikmat" asarining g'oyaviy mazmuni nima?
14. O'rta asrlar adabiyotida diniy motivlar qanday aks etgan?
15. Sakkokiy ijodining xususiyatlari qanday?
16. Lutfiy ijodida qanday mavzular ustun?
17. Alisher Navoiyning o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rni qanday?
18. Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotining xususiyatlari qanday?
19. Navoiy davri adabiy muhiti haqida. Husayniy ijodi

20.Navoiydan keyingi adabiy jarayon
21.Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi
22."Boburnoma" asarining o'ziga xosligi
23.Bobur lirikasining asosiy xususiyatlari
24.Mashrab ijodi qanday g'oyalarni ilgari suradi?
25.Ogahiy ijodi haqida nimalarni bilasiz?
26.XVIII–XIX asr o'zbek adabiyotining asosiy yo'nalishlari qanday?
27.Muqimiy ijodining asosiy xususiyatlari qanday?
28.Furqat ijodining o'ziga xosligi
29.Zavqiy ijodi va adabiy muhit
30.Jadid adabiyoti nima va uning asosiy vakillari
31.Abdulla Avloniy ijodi haqida ma'lumot bering.
32.Abdulla Qodiriy ijodining o'ziga xosligi
33."O'tkan kunlar" romanining ahamiyati
34.Cho'lpon ijodi. Lirikasining o'ziga xosligi
35.Fitrat ijodining asosiy g'oyalari
36.Sovet davri o'zbek adabiyotining xususiyatlari
37.G'afur G'ulom ijodi. Nasr va lirika
38.Oybek ijodi. Romanlarining mavzu xususiyatlari
39.Hamid Olimjon ijodining asosiy xususiyatlari
40.Uyg'un ijodi va adabiy muhit
41.Ikkinchi jahon urushi davri adabiyoti qanday xususiyatlarga ega?
42.Urushdan keyingi davr o'zbek adabiyotining rivoji qanday kechgan?
43.Abdulla Qahhor ijodi haqida gapiring.
44.Said Ahmad ijodi haqida nimalarni bilasiz?
45.O'tkir Hoshimov ijodining ahamiyati nimada?
46.Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari qanday?
47.Zamonaviy o'zbek adabiyotida qanday yo'nalishlar mavjud?
48.O'zbek adabiyotida roman janrining rivoji qanday kechgan?
49.O'zbek adabiyotida she'riyatning taraqqiyot bosqichlari qanday?
50.Dramaturgiya janrining rivoji haqida gapiring.
51.O'zbek adabiyotida tasavvufning o'rni qanday?
52.O'zbek adabiyotida realizm va romantizm qanday namoyon bo'lgan?
53.O'zbek adabiyotida tarjima adabiyotining ahamiyati nimada?
54.Adabiyot va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
55.O'zbek adabiyotida milliy g'oya qanday ifodalangan?
56.O'zbek adabiyotida ayol yozuvchilar ijodi haqida nimalarni bilasiz?
57.O'zbek adabiyotida tarixiy romanlarning o'rni qanday?
58.Adabiy tanqidning vazifalari nimalardan iborat?
59.O'zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan aloqalari qanday?
60.O'zbek adabiyotining bugungi kundagi ahamiyati nimada?

**"Aruz va mumtoz poetikaga kirish" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun savolnoma**

1. Mumtoz poetika tushunchasi nimani anglatadi?
2. Sharq mumtoz poetikasining asosiy manbalari qaysilar?
3. Mumtoz adabiyotda badiiylik tushunchasi qanday talqin qilinadi?
4. Poetik tafakkur nima va u qanday shakllanadi?
5. Mumtoz poetikaning asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?
6. Aruz vazni nima va uning asosiy xususiyatlari qanday?
7. Aruz tizimida rukn tushunchasi nimani bildiradi?
8. Bahr nima va uning turlari qanday?
9. Aruzda zihof va illat tushunchalarini izohlang.
10.Aruz vaznining o'zbek adabiyotidagi o'rni qanday?
11.Qofiya nima va uning turlari qanday?
12.Radif tushunchasi nimani anglatadi?
13.She'riy misra va bayt tushunchalarini izohlang.
14.Mumtoz she'riyatda matla' va maqta' nima?
15.G'azal janrining asosiy xususiyatlari qanday?
16.Qasida janri haqida nimalarni bilasiz?
17.Ruboiy janrining tuzilishi qanday?
18.Masnaviy janri qanday xususiyatlarga ega?
19.Fard va qit'a janrlarining farqi nimada?
20.Tuyuqlar haqida ma'lumot bering.
21.Mumtoz poetikada obraz tushunchasi qanday talqin qilinadi?
22.Lirik qahramon nima?
23.Mumtoz she'riyatda ishq obrazining o'rni qanday?
24.Yor obrazi qanday badiiy ideal sifatida tasvirlanadi?
25.Oshiq obrazi qanday talqin qilinadi?
26.Mumtoz she'riyatda tabiat tasviri qanday beriladi?

27. Ramziy obrazlar nimani anglatadi?
28. Mumtoz poetikada majoz va haqiqat munosabati qanday?
29. Tasavvufiy obrazlar qanday ifodalanadi?
30. Komil inson obrazi qanday talqin qilinadi?
31. Tashbeh nima va uning turlari qanday?
32. Isti'ora nima va qanday qo'llanadi?
33. Mubolag'a san'ati nimani anglatadi?
34. Tazod san'ati haqida gapiring.
35. Tajnis san'ati nima?
36. Mumtoz poetikada badiiy san'atlarning roli qanday?
37. Ilm ul-badi' nima?
38. Ilm ul-aruz nimani o'rganadi?
39. Ilm ul-qofiya haqida ma'lumot bering.
40. Mumtoz poetikada uslub tushunchasi qanday talqin qilinadi?
41. She'riy nutqning o'ziga xosligi nimada?
42. Mumtoz poetikada til va uslub munosabati qanday?
43. Mumtoz adabiyotda janrlar tizimi qanday shakllangan?
44. She'riyatda ritm va ohangning ahamiyati nimada?
45. Badiiy matnda shakl va mazmun birligi qanday ta'minlanadi?
46. Mumtoz poetikada an'ana va yangilik munosabati qanday?
47. Mumtoz she'riyatda tasavvufning o'rni qanday?
48. Ishqning ilohiy va dunyoviy talqini nimada farqlanadi?
49. Mumtoz poetikada estetik ideal qanday ifodalanadi?
50. Mumtoz she'riyatda go'zallik tushunchasi qanday talqin qilinadi?
51. Mumtoz poetikada badiiy konflikt qanday namoyon bo'ladi?
52. Mumtoz she'riyatda ichki kechinmalar qanday ifodalanadi?
53. Mumtoz poetikada vaqt va makon tushunchasi qanday beriladi?
54. Mumtoz she'riyatda ohangdorlik qanday yaratiladi?
55. Mumtoz poetikada she'riy tafakkur qanday namoyon bo'ladi?
56. Mumtoz poetikaning zamonaviy adabiyotga ta'siri qanday?
57. Mumtoz poetikani o'rganishning ahamiyati nimada?
58. Mumtoz poetikada milliylik va umuminsoniylik qanday uyg'unlashgan?
59. Mumtoz poetikada badiiy mahorat qanday namoyon bo'ladi?
60. Mumtoz poetikani o'rganishda qanday metodlardan foydalaniladi?

**"O'zbek folklori" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun savolnoma**

1. Folklor tushunchasi nimani anglatadi?
2. Folklorshunoslik fanining predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
3. O'zbek folklorining asosiy janrlari qaysilar?
4. Og'zaki ijodning yozma adabiyotdan farqi nimada?
5. Folklorning asosiy xususiyatlari qanday?
6. Xalq og'zaki ijodining jamiyatdagi o'rni qanday?
7. Folklorda an'ana va variantlilik nima?
8. Folklor asarlarining anonimligi nimani anglatadi?
9. Folklorda kollektiv ijod tushunchasi qanday izohlanadi?
10. Folklor va marosimlar o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
11. Doston janri nima?
12. O'zbek xalq dostonlarining asosiy xususiyatlari qanday?
13. Alpomish dostoni haqida nimalarni bilasiz?
14. Qahramonlik dostonlarining o'ziga xos jihatlari qanday?
15. Ishqiy-romanik dostonlar haqida gapiring.
16. Dostonlarda obrazlar tizimi qanday tuzilgan?
17. Baxshi va dostonchilik an'anasi haqida ma'lumot bering.
18. Dostonlarning ijro usullari qanday?
19. Folklorda epik tafakkur nimani anglatadi?
20. Dostonlarda tarixiylik qanday aks etgan?
21. Ertak janri nima?
22. Ertaklarning turlari qanday?
23. Sehrli ertaklarning xususiyatlari qanday?
24. Maishiy ertaklar haqida gapiring.
25. Hayvonlar haqidagi ertaklarning o'ziga xosligi nimada?
26. Ertaklarda obrazlar tizimi qanday beriladi?
27. Ertaklarda yaxshilik va yomonlik kurashi qanday ifodalanadi?
28. Ertaklarda ramziylik qanday namoyon bo'ladi?
29. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
30. Ertaklarda fantastika qanday qo'llanadi?
31. Maqol va matallar nima?
32. Maqollarning asosiy xususiyatlari qanday?
33. Matallar maqollardan nimasi bilan farq qiladi?

34. Topishmoq janri haqida ma'lumot bering.
35. Topishmoqlarning tuzilishi qanday?
36. Lapar va qo'shiqlar folklorda qanday o'rin tutadi?
37. Marosim qo'shiqlari haqida nimalarni bilasiz?
38. Mehnat qo'shiqlari qanday xususiyatlarga ega?
39. Bolalar folklori nima?
40. Alla janri haqida gapiring.
41. Latifa janri nima?
42. Nasriddin Afandi latifalarining o'ziga xosligi nimada?
43. Askiya janri haqida ma'lumot bering.
44. Folklorda kulgi va satira qanday ifodalanadi?
45. Afsona va rivoyatlar haqida gapiring.
46. Afsona va ertak o'rtasidagi farq nimada?
47. Rivoyatlarda tarixiylik qanday aks etadi?
48. Folklorda mifologik qarashlar qanday ifodalanadi?
49. Folklor asarlarini to'plash va nashr etish jarayoni qanday kechadi?
50. Folklor namunalarini o'rganish metodlari qanday?
51. Folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi aloqalar qanday?
52. O'zbek folklorining jahon folklori bilan o'xshash va farqli jihatlari qanday?
53. Folklorda milliylik va umuminsoniylik qanday uyg'unlashgan?
54. Folklorning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
55. Folklor asarlarida estetik ideal qanday ifodalanadi?
56. Folklorda vaqt va makon tushunchasi qanday beriladi?
57. Folklorda badiiy obraz qanday yaratiladi?
58. Folklorda an'anaviy formulalar nima?
59. Folklorning zamonaviy jamiyatdagi o'rni qanday?
60. Folklorshunoslikning bugungi kundagi dolzarb muammolari nimalardan iborat?

## Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar:


1. Alisher Navoiy. *Xazoyin ul-maoniy.* – Toshkent: Fan, 1983. – 600 b.
2. Alisher Navoiy. *Xamsa.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 800 b.
3. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub.* – Toshkent: Fan, 1983. – 120 b.
4. Alisher Navoiy. *Muhokamat ul-lug'atayn.* – Toshkent: Fan, 1967. – 64 b.
5. Alisher Navoiy. *Majolis un-nafois.* – Toshkent: Fan, 1961. – 180 b.
6. Alisher Navoiy. *Mezon ul-avzon.* – Toshkent: Fan, 1967. – 100 b.
7. Alisher Navoiy. *Lison ut-tayr.* – Toshkent: Fan, 1984. – 250 b.
8. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig.* – Toshkent: Fan, 1971. – 320 b.
9. Mahmud Qoshg'ariy. *Devonu lug'otit turk.* – Toshkent: Fan, 1960. – 500 b.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma.* – Toshkent: Fan, 1989. – 400 b.
11. Abdulla Qodiriy. *O'tkan kunlar.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1994. – 350 b.
12. *O'zbek adabiyoti tarixi.* 5 jildlik. – Toshkent: Fan, 1977–1980. – 400–600 b.
13. Naim Karimov. *O'zbek adabiyoti tarixi.* – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 300 b.
14. R.Vohidov, H.Eshonqulov. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2006.
15. B. Valixo'jayev. *O'zbek adabiyoti tarixi.* – Toshkent: Universitet, 2006. – 280 b.
16. Izzat Sulton. *Adabiyot nazariyasi.* – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 350 b.
17. Suyima G'anieva. *Navoiyshunoslik asoslari.* – Toshkent: Fan, 2001. – 240 b.
18. A. Hayitmetov. *Navoiy lirikasining tahlili.* – Toshkent: Fan, 1970. – 220 b.
19. Ibrohim Haqqulov. *Navoiy va tasavvuf.* – Toshkent: Sharq, 2004. – 160 b.
20. Ibrohim Haqqulov. *Tasavvuf va she'riyat.* – Toshkent: Sharq, 2006. – 180 b.
21. A. Abdug'afurov. *Mumtoz poetika asoslari.* – Toshkent: Fan, 2005. – 220 b.
22. S. Hasanov. *Aruz ilmi.* – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 150 b.
23. *O'zbek xalq og'zaki ijodi.* – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 300 b.
24. Alpomish. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1998. – 400 b.
25. *O'zbek xalq ertaklari.* – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981. – 350 b.
26. *O'zbek xalq maqollari.* – Toshkent: Fan, 1987. – 250 b.
27. T. Mirzayev. *O'zbek folklori.* – Toshkent: Fan, 1999. – 200 b.
28. M. Jo'rayev. *Folklorshunoslik asoslari.* – Toshkent: Universitet, 2008. – 180 b.
29. Sh. Turdimov. *O'zbek folklori tadqiqotlari.* – Toshkent: Fan, 2010. – 220 b.